

Qoramollarning nodulyar dermatit kasalligi va qarshi kurashda profilaktik tadbirlar

Qoramollarning nodulyar dermatiti (keyingi o'rinlarda ND) (*Dermatitis nodularis bovim*) – kontagiozli chegara bilmas virus kasalligi bo'lib, davomli isitma, nekrozlanuvchi o'choqli teri bo'rtmalari (g'adir-budur shish), tarqalgan limfadenit, ko'z, nafas olish va ovqat hazm qilish a'zolari shilliq pardalarining jarohatlanishi bilan xarakterlanadi. Bu kasallik bilan, ba'zan, qo'y, echkilar ham kasallanishi mumkin.

Kasallik qo'zg'atuvchisi Poxviridae oilasi Capripoxvirus avlodiga mansub DNK- saqlovchi virus bo'lib, qo'y-echkilar chechagi virusiga antigenlik jihatidan yaqin. Infeksiya qo'zg'atuvchisi manbai bo'lib, kasal va kasallik latent kechayotgan hayvonlar hisoblanadi. Virus inkubatsiya davrida va hayvonning kasallik davrida jarohatlangan teri sohalaridan, so'lak, urug', sut, ko'z va burundan ajratilgan suyuqliklar orqali ajraladi. Virusning bir hayvondan ikkinchisiga o'tishi asosan transmissiv yo'l mexanik tashuvchanlikka gumon qilinayotgan hasharotlar orqali uzatiladi degan ma'lumotlar mavjud. Chunki, kasallik ayniqsa, issiq va namli mavsumda, nam, balchiqli hududlarda ko'proq uchraydi. Ammo hozirgacha virus tashuvchilar doirasi aniqlanmagan. Qon so'ruvchi hasharotlardan (pashsha, eshakqurt, kanalar) virusni ajratib olishga qaratilgan bir nechta tadqiqotlar natijasiz yakunlangan. Ayrim olimlar virus parrandalar orqali mexanik tarqaladi deb hisoblashadi. Kasallik to'satdan, bir vaqtning o'zida bir-biridan uzoqda joylashgan manzillarda paydo bo'lib juda tez tarqaladi. Uzatish omillari sifatida sut, urug', ozuqa, suv, transport va boshqa tashqi muhit ob'ektlari hisoblanadi. Virus kasal va sog'lom hayvonlarning bevosita kontakti, jinsiy yo'l, buzoqlarda esa sut orqali yuqishi mumkin.

Klinik belgilari. Kasallikning o'tkir kechishida tana haroratining +400S gacha oshishi va 4-14 kun mobaynida shu zaylda saqlanishi, ishtahaning pasayishi, ko'zdan suyuqlik oqishi, burun va og'izdan shilliq yoki yiringli suyuqlik oqishi, 48 soatdan so'ng o'choqli teri qoplamida bo'rtmalarining hosil bo'lishi kuzatiladi. Bu bo'rtmalar teri yuzasidan sal ko'tarilgan, dumaloq, aniq chegaralangan, 0,2-7,0 sm kattalikda bo'lib kasallikning kechishiga bog'liq holda miqdori bir nechtadan bir necha yuztagacha bo'lishi mumkin. Ular butun tana bo'ylab joylashadi, asosan, son, qo'ltiq, ko'z atrofi, tumshuq, yelinda joylashadi. Kasallik og'ir kechganda bo'rtmalar og'iz va burun shilliq pardalarida, qin labi sohalarda ham joylashishi mumkin. Nodulyar bo'rtmalar ko'z qovog'ida hosil bo'lishi natijasida ko'z pardasi loyqalashadi, hayvon butunlay yoki qisman ko'r bo'lib qoladi. Bo'rtmalar hosil bo'lgandan 1-3 haftadan keyin, ular ichidagi to'qima butunlay nekrozga uchrab sekvestrlar hosil bo'ladi. Keyinchalik bo'rtmalar yorilib ichidan yoqimsiz hidli cho'ziluvchan shilliq modda ajralib chiqadi. isitma, shilliq va qon aralash diareya bilan tavsiflanadi. Yarim o'tkir kechishda teri qoplaminig sezilarli jarohatlanishi kuzatilmaydi. Kasallik qisqa muddatli isitma (2-5 kun), ishtaha yo'qolishi bilan kechadi. Kasallik klinik belgilersiz ham kechishi mumkin, bu holatda kasallanish faqat qo'zg'atuvchi virus DNK-sini polimerazli zanjir reaksiyasida (PZR) aniqlash yoki virus neytrallovchi antitelolar mavjudligi bo'yicha aniqlanadi. Zararlangan podada klinik belgilersiz kasallangan hayvonlar 50% gacha yetishi mumkin.

Davolash. Maxsus davolash usullari yaratilmagan. Simptomatik davolash qoʻllaniladi. Kasal hayvonga oziqlantirish, saqlash boʻyicha yaxshi sharoitlar yaratiladi. Ularning teri qoplamlariga dorivor va dezinfektsion vositalar bilan ishlov beriladi. Sekundar infeksiyani va kasallik asoratlarini oldini olish maqsadida antibiotiklar, sulfanilamid preparatlar qoʻllaniladi. Tabiiy sharoitda 90% hayvonlar sogʻayishi mumkin.

Maxsus profilaktika. Faol maxsus profilaktika uchun Neethling shtammidan gomologik tirik attenuatsiyalangan virus vaktsina va qoʻy-echkilardan ajratilgan kapripoksviruslar shtammlaridan olingan geterologik tirik attenuatsiyalangan virus vaktsinadan foydalaniladi. Vaktsina sifatida ishlatiladigan kapripoksviruslarning barcha shtammlari inʼektsiya joyida kuchli mahalliy reaksiya chaqirishi mumkin. Nodulyar dermatit virus vaktsinasi bilan emlash dozasi 2,5 lg50/cm³, qoʻy-echkilar chechagi virusidan tayyorlangan vaktsina bilan emlash dozasi 5 lg50/cm³ tashkil etadi .

Maxsus profilaktika uchun dastlabki rejali vaktsinatsiya 3 oylik yosh hayvonlarga qilinadi. Revaktsinatsiya 12 oydan soʻng oʻtkaziladi. Nosogʻlom punktlarda va xavfli hududdagi xoʻjaliklarda avval qilingan immunizatsiya muddatidan qatʼiy nazar barcha sogʻlom hayvonlar vaktsinatsiya qilinadi. 6 oylikkacha boʻlgan yosh hayvonlar 14 kun oraliq bilan 2 marta emlanadi.

Oldini olish va qarshi kurashish choralari. Asosiy eʼtibor xorijiy mamlakatlardan ushbu kasallik qoʻzgʻatuvchisining kirib kelishiga yoʻl qoʻymaslikka qaratilishi lozim. Mamlakatga keltiriladigan qoramollar, ularning goʻsht, sut mahsulotlari va urugʻ ND boʻyicha sogʻlom boʻlgan davlatlardan xarid qilinishi lozim. Qoramollar 30 kunlik profilaktik karantin davomida NDga tekshirilishi va faqat sogʻlom hayvonlar fermaga kiritilishi kerak. Xorijiy davlatlar bilan chegara hududlarda qoramol va qoʻy-echkilarni boqish maqsadga muvofiq emas.

Fermalarni yopiq korxonalar shaklida tashkil qilish, binolarga kirishda dezogilamlar orqali kirishni tashkil etish, hayvonlarni toʻyimli ozuqalar bilan boqish, ularni zoogigienik meʼyorlar asosida joylashtirish, oʻz vaqtida kasallarni ajratib, alohida saqlash va davolash, ferma hududini ozoda saqlash, reja asosida ferma hududida dezinfektsiya, dezinseksiya tadbirlarini oʻtkazish ushbu kasallikni oldini olishga yordam beradi.

Tavsiyalar Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qoʻmitasi maʼlumotlari asosida tayyorlandi.